

BOSHLANG‘ICH TA’LIMDA MANTIQUIY FIKRLASHNI RIVOJLANTIRISH: ZAMONAVIY METODLAR VA YONDASHUVLAR

Mamayusupova M.Q

Namangan davlat pedagogika instituti o‘qituvchisi (PhD),

Saydakbarova M

Namangan davlat pedagogika instituti magistri

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.21157164>

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining intellektual salohiyatini oshirishda mantiqiy fikrlashning o‘rni va ahamiyati yoritilgan. Zamonaviy ta’limda qo‘llanilayotgan samarali metodlar, jumladan, TRIZ texnologiyasi, grafik organayzerlar va evristik suhbatlarning o‘quvchi shaxsi shakllanishiga ta’siri tahlil qilingan. Tadqiqot natijasida boshlang‘ich ta’limda mantiqiy mashqlarni tizimli qo‘llash bo‘yicha metodik tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: Boshlang‘ich ta’lim, mantiqiy fikrlash, kognitiv rivojlanish, metodika, innovatsion yondashuv, TRIZ texnologiyasi, tanqidiy tafakkur, grafik organayzerlar, mental xaritalar, ta’lim samaradorligi.

Аннотация: В данной статье освещаются роль и значение логического мышления в повышении интеллектуального потенциала учащихся начальных классов. Анализируются современные эффективные методы обучения, такие как технология ТРИЗ, графические органайзеры и эвристические беседы, а также их влияние на формирование личности учащегося. По результатам исследования разработаны методические рекомендации по системному использованию логических упражнений в начальном образовании.

Ключевые слова: Начальное образование, логическое мышление, когнитивное развитие, методика, инновационный подход, технология ТРИЗ, критическое мышление, графические органайзеры, ментальные карты, эффективность обучения.

Abstract: This article highlights the role and significance of logical thinking in enhancing the intellectual potential of primary school students. It analyzes effective methods used in modern education, including TRIZ technology, graphic organizers, and heuristic conversations, and their impact on student personality development. As a result of the research, methodical recommendations for the systematic use of logical exercises in primary education have been developed.

Keywords: Primary education, logical thinking, cognitive development, methodology, innovative approach, TRIZ technology, critical thinking, graphic organizers, mind maps, educational efficiency.

KIRISH. Zamonaviy ta’lim tizimining asosiy vazifasi o‘quvchilarga faqat tayyor ma’lumotlarni berish emas, balki ularni mustaqil fikrlashga, ma’lumotlarni tahlil qilishga va muammoli vaziyatlarda to‘g‘ri qaror qabul qilishga o‘rgatishdir. Bugungi kunda dunyo juda tez o‘zgarib bormoqda, yangi texnologiyalar, yangi bilimlar paydo bo‘lmoqda. Shuning uchun o‘quvchilar

faqat darslikdagi ma’lumotlar bilan cheklanib qolmasdan, o’zlari ham izlanishlari, yangi bilimlarni mustaqil ravishda o’zlashtira olishlari kerak. Bu esa, albatta, mantiqiy fikrlash orqali amalga oshadi.

Boshlang’ich sinf davri (7-11 yosh) bolalar hayotida eng muhim bosqichlardan biri hisoblanadi. Aynan shu davrda bolaning fikrlash qobiliyati, dunyoqarashi, bilimga bo’lgan qiziqishi shakllanadi. Bola ko’proq savol beradi, atrofidagi narsalarga qiziqadi va ularni tushunishga harakat qiladi. Agar o’qituvchi bu qiziqishni to’g’ri yo’naltira olsa, bola kelajakda mustaqil fikrlaydigan, faol va ijodkor shaxs bo’lib yetishadi.

Mantiqiy fikrlashni shakllantirish bosqichlari. Kichik maktab yoshidagi bolalarda fikrlash jarayoni konkret-obrazli xarakterga ega bo’ladi. Shuning uchun mantiqiy mashqlar quyidagi ketma-ketlikda amalga oshirilishi lozim:

1. Taqqoslash: Narsalarning o’xshash va farqli jihatlarini aniqlash.
2. Umumiyashtirish: Buyumlarni muayyan belgilari bo’yicha guruhlash (klassifikatsiya).
3. Sabab-oqibat bog’liqligi: Voqea va hodisalarning bir-biriga bog’liqligini tushunish.

Boshlang’ich sinflarda mantiqiy o’yinlar darsning samaradorligini oshiradi. Masalan:

“Mantiqiy zanjir”: O’quvchilarga rasmlar to’plami beriladi va ular voqealar ketma-ketligini mantiqan to’g’ri joylashtirib, hikoya tuzishlari kerak.

“G’ayritabiiy holatlar” : Bolalarga mantiqan xato bo’lgan rasm ko’rsatiladi (masalan, qishda daraxtda olma pishgan) va ular xatoni topib, asoslab berishlari so’raladi.

TRIZ texnologiyasi (Ixtirochilik masalalarini yechish nazariyasi)

Bu metod o’quvchilarni standart bo’lmagan yechimlar topishga undaydi.

Misol: “Agar dunyoda faqat oq rang bo’lsa nima bo’lar edi?” kabi ochiq savollar bolani kengroq va chuqurroq mushohada yuritishga majbur qiladi.

Grafik organayzerlar bilan ishlash. Vizual vositalar mavhum tushunchalarni konkretlashtirishga yordam beradi:

-Venn diagrammasi: Matematika darsida sonlar, ona tili darsida esa so’z turkumlarini solishtirishda qo’llaniladi.

-Mental xaritalar (Mind Mapping): Mavzuni tizimlashtirish va xotirada saqlash uchun samarali vositadir.

“Sokrat suhbatlari”. O’qituvchi o’quvchiga tayyor javobni aytmaydi. Aksincha, “Sizningcha nega shunday?”, “Agar bunday bo’lmaganda nima bo’lar edi?” degan savollar orqali bolaning o’zini mantiqiy xulosaga yetaklab keladi.

Xulosa. Boshlang’ich sinf darslarida mantiqiy elementlardan foydalanish o’quvchilarning fanga bo’lgan qiziqishini oshirish bilan birga, ularning intellektual koeffitsiyenti (IQ) o’sishiga xizmat qiladi. Mantiqiy fikrlaydigan bola axborotlar oqimi ko’p bo’lgan bugungi kunda kerakli ma’lumotni saralay oladigan, mustaqil va ijodkor shaxs bo’lib yetishadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Sh. Mirziyoyev. "Yangi O'zbekiston strategiyasi". - Toshkent, 2021.
2. Davlat Ta’lim Standartlari (Milliy o’quv dasturi).
3. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. - T.: 2019.
4. Mamayusupova M. “Umumta’lim maktablarida strategik rejalashtirishning sifat ko’rsatkichlari”. “Maktabgacha va maktab ta’limi” jurnali. 4-noyabr, 2025-yil.